

CURRENT ISSUES OF FORMATION OF LEGAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN CIVIL SOCIETY

Barchinoy Mirzaliyeva
Student of Termez State University

Annotation: In this article, we talk about the fact that in our independent Uzbekistan, building a democratic, humane state governed by the rule of law and civil society, it is in this society that the development of legal culture, literally raising legal awareness has become a requirement of the times. Unless there is a high level of legal thinking in citizens and a position of a free individual who understands his behavior and responds to it consciously, various imbalances will arise.

Keywords: President, education, law, citizen, population, education, globalization, society.

FUQAROLIK JAMIYATI TARKIBIDA XUQUQIY ONG VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Barchinoy Mirzaliyeva
Termiz davlat universiteti talabasi

Anotassiya: Ushbu maqolada biz musaqil O‘zbekistonimizda demokratik, insonparvar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, aynan shu jamiyatda, huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishish, tom ma’nodda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylanganligi haqida so‘z boradi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur va o‘z hatti-harakatini tushunib unga ongli javob beruvchi erkin shaxs pozitsiyasi vujudga kelmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi.

Kalit so‘zlar: Prezidentimiz, talim, huquq, fuqaro, aholi, tarbiya, globallashuv, jamiyat.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikning mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonida ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy talim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotgani, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha taminlanmaganligi haqida to‘htalib o‘tilgan.

Fuqarolarda yuksak huquqiy ongni va huquqiy faolligni ayniqsa bugungi kun yoshlarida huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish davr talabiga aylanmoqda.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq tasirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligidandir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini taminlashga o'zining jiddiy salbiy tasirini ko'rsatmoqda.

Bu esa aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va tasirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Eng avvalo huquqiy ong zamirida shakllanadigan huquqiy madaniyat haqida to'htalib o'tsak.

Huquqiy madaniyat keng tushunchadir. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning g'oyat muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo odamlarning munosabatlarini ifodalovchi qarashlar va e'tiqodlardan ularning huquq haqidagi tasavvurlaridan, intilishlari va tuyg'ularidan iboratdir. Huquqiy ong darajasi fuqarolarning yangi qonunlar qabul qilishi, davlat organlarining qonunni qo'llash fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish faoliyati bilan bog'liq fikrlari, kayfiyatlarini, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik hamda iqtisodiy o'zgarishlarga munosabatini belgilaydi.

Shaxsning huquqiy madaniyati-huquqiy ongni aniq maqsadni ko'zlab tarbiyalash natijasi, uning eng yuqori bosqichidir. Demokratik huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida "Biz odamlarni eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirishimiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi inson erkinliklari - ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va ma'suliyat ekanligini chuqur his etib tursin"¹

Huquqiy madaniyat halqimizning qadimiy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruratdir.

Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o'rganilishi zarur. Shu bilan birga har bir muayyan holatlarda madaniyatning turlicha ko'rinishlarini tushunishga qat'iy belgilanadigan u yoki bu jihati ustun bo'ladi. Chunonchi, huquqiy hayotda ma'rifatparvarlikni shakllanishini ta'minlashda inson omilini oshirish nuqtai nazaridan yondashilganda avvalambor e'tiborni huquqiy madaniyatning mazmuniga qaratish zarurligi namoyon bo'ladi. Huquqiy madaniyatning asosini huquqiy tarbiya tashkil etadi.

1. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: Ўзбекистон, 2006.

“Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan bir tizimli aniq maqsadni ko‘zlagan holda ta‘sir ko‘rsatilishidir.”²

Huquqiy tarbiya - bu jamiyat a‘zolarining yurish-turish madaniyatiga va onggiga tizimli va maqsadga muvofiq ta‘sir etish jarayonidir. Bu jarayonda kishilarning huquqiy bilim darajasiga ega bo‘lishiga erishish maqsad qilib qo‘yiladi. Ularda e‘tiqoddan kelib chiqadigan qonun va huquqqa bo‘lgan hurmatni shakllantirish huquqiy tarbiyaning o‘zagini tashkil etadi. Huquqiy tarbiya va huquqni tatbiq qilish jamiyatda qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlashga yordam beradi. U kishilarni intizomlilikka, uyushqoqlikka, va yangi turmush tarziga o‘rgatadi. Tarbiyaviy ishning mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog‘liqdir. Huquqiy tarbiya-huquqiy ongini shakllantiradi, bu esa tarbiyaning o‘ziga xos shakllari va usullarini izlab topish qo‘llanishi zaruriyatini taqazo etadi.

Tarbiyalovchilar zarur xajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi va tarbiyalanuvchida huquqiy ongini shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim. Huquq haqidagi tasavurlarning shakllantirishda, shuningdek birmuncha alohida hal etishda asos bo‘ladigan qonunning ayrim umumiy qoidalarini huquqiy tamoyillarni bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni unitmaslik kerakki, voyaga yetmaganlar o‘zlari kuzatib boradigan huquqiy faktlarga nafaqat ularni qo‘llanish amaliyoti nuqtai nazaridan baho berishadi. Agar bunday amaliyot huquqda yozib qo‘yilganiga nisbatan farq qiladigan bo‘lsa, unda bu yoshlar huquqiy ko‘rsatmalarning shunchaki rasmiy narsa ekanligi to‘g‘risidagi tassavurlarni- "ha, qonun boshqayu, hayot butunlay boshqa" degan fikrda bo‘lishi mumkin.

Huquqiy tarbiyani faqat huquqiy tarbiya bilan cheklab qo‘ymaslik kerak, tarbiyaning roli zarur bo‘lganida huquqiy amaliyotni ham o‘zgartira bilish uni oqilona izohlash qonun buzishning oldini olish, aniqlanishi va bartaraf etishi uchun barcha mumkin bo‘lgan chora tadbirlarni qabul qilishni ham o‘z ichiga olishi zarur. Aks holda hech qanday og‘zaki pand nasihat va suhbatlar yoshlarga ularning ko‘zi oldida jazosizlik holatida sodir etiladigan huquqbuzarliklar yetkazadigan zararni barham topdira olmaydi.

Shunday qilib jamiyatimizda bugungi kunda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni to‘g‘ri shakllantira olish va qonunlarimizga xurmat xissi bilan qarash, fuqarolik jamiyatining asosiy mezonini bo‘lmish o‘zgalarning huquqlarini ham poymol qilmaslik, adolatli jamiyatni barpo etish va bunda qonun ustuvorligini ta‘minlay olish biz fuqarolardan yuksak huquqiy madaniyatimizni talab qiladi. Huquqiy madaniyatni oshirishda esa har bir fuqaro joriy etilgan qonunlarimiz doirasida harakatni amalga oshirsa, qonunlarimiz buzilishiga yo‘l quymasa va buni atrofdagilar ham o‘rgata olsa dolzarb muammo bo‘lib kelayotgan huquqiy madaniyatning ayrim jihatlariga erishgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2019.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Mas‘ul muharrirlar T.Odilqoriev -T.: “Toshkent adolat” nashriyot uyi, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-yanvarda Oliy Majlisga k,ilgan Murjaatnomasi.
5. Karimovning “Yuksak manaiyat- yengilmas” kuch asari.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati” tugrisidagi k,onuni.
7. Saidov A.X., Tadjixanov U., Toshqulov J.O‘. Mustaqillik va huquqiy mafkura. T., 2005.

² Саидов А.Х., Таджиханов У., Тошқулов Ж.Ў. Мустақиллик ва ҳуқуқий мафқура. Т., 2005.